Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy intellektual rivojlantirishda yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishning pedagogik imkoniyatlari..... 585

**Alibek Abdullayev**

Informatika o'qituvchisini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda metodologik yondashuvlar integratsiyasi..... 588

**Gulnoza Bekmuradova**

Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ishlari sifatini boshqarish mexanizmlari..... 591

**Muslima Imamkulova**

Talabalarda rus tili darslari orqali pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish metodikasi..... 595

**Тўйчи Ахмедов**

Жамоатчилик кенгаши — ижроия ҳокимияти фаолиятига қўмаклашувчи институт сифатида..... 598

**Sanobar Kuldashaeva**

Ona tili ta'limida raqamli texnologiyalarning tatbiqi..... 601

**Adolatkhon Ibodullayeva**

The crucial role of needs analysis in learning languages..... 606

**Abdusalim Kenjaboyev**

Yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi..... 608

**Dilrabo Kurbanova, Umida Jurayeva**

Kichik yoshdagi o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalarining o'rni..... 611

**Muhabbat Istamova**

Korxonalarni inqirozga qarshi boshqarishda strategiyaning samaradorligini ta'minlash yo'llari..... 614

**Baxtiyor Sultonov, Aziza Mamanazarova**

Yosh futbolchilarning tezkor-kuch jismoniy sifatlarini takomillashtirish samaradorligi..... 617

**Sarvinov Xo'jamberdiyeva**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining divergent tafakkurini rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlar va ilg'or xorijiy tajribalar tahlili..... 620

**Muyassar Yakubova, Vasila Mirzaraimova, Anvar Raximov**

Muhandislik grafikasi fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalarni o'rni..... 623

**Xamrakul Sanakulov**

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini zamonaviy metodlar yordamida tashkil etish..... 626

**Zoxidaxon Djumayeva**

IV sinfdagi tabiiy fanlarni O'rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanib o'qitish metodikasi..... 629

**Aygu'ul Xalmutimova**

Педагогические особенности экологического правового воспитания в семье..... 632

**Saloxiddin Siradjiev**

Raqamli ta'lim resurslarni modelashtirishga o'rgatishda dasturiy paketlardan foydalanishning didaktik asoslari..... 635

**Huzora Xamidova, Sitora Xamidova**

Развитие педагогических качеств студентов в учебном процессе..... 638

**Hakima Sharipova**

Kimyoni muammoli o'qitish kimyo darslari samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida..... 640

**Dilshod Haydarov, Mirjalol Haydarov**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsiyalashgan texnologik loyihalash kompetentligini takomillashtirish zarurati..... 643

**O'g'ilshod Toshboyeva**

Pedagoglar emotsional intellektini rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi..... 646

**Sojida Ochilova, Muzaffar Ochilov, Farangiz Xuramova, Maxsud Usmonov**

Sonli qatorlar (Musbat hadli qatorlarning yaqinlashish teoremlari. Leybnis teoremasi, absolyut va shartli yaqinlashish)..... 650

**Oybek Jo'lmurodov**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik qo'llab-quvvatlashning pedagogik-psixologik jihatlari..... 653

**Aziza Mamanova**

Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 13-14 yoshli sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini o'rganish va takomillashtirish..... 656

**Dilfuza Ochilova, Zamiira Saparova**

Особенности сюжетно-ролевой игры в гендерном воспитании детей..... 659

**Salimjon Maxmudov**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish malakalarini shakllantirishning psixologik asoslari..... 662

**Sanobar Siddiqova**

Узлуксиз таълим жараёнида ижодкор шахсни тарбиялашнинг педагогик-психологик масалалари..... 665

**Nasiba Jumanova**

Boshlang'ich ta'limda o'yin texnologiyalarni takomillashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishning afzalliklari..... 668

**Akbar Eshmurodov**

Маънавий ривожланиш миллий суверенитетни сақлаш омили сифатида..... 671

**Lola Razikova**

Pedagogik va innovatsion texnologiyadan ta'lim jarayonida foydalanish..... 674

**Umida Zaripboyeva**

Hofiz Xorazmiy — devonnavis ijodkor..... 677

**Kamil Baltabaev, Husan Umarov, Nafisa Tairova**

In diesel engine power systems, optimization of injector parameters for uniform spray of dimethyl ether..... 680

**Mafuna Qarshiboyeva, Sevvara Sunnatova**

Xor jamoalarini tashkil qilish va boshqarish..... 683

**Dilnoza Kulboyeva**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni va tuzilmasi..... 686

**Muzaffar Ochilov, Sojida Ochilova, Maxinur Xasanova, Maxsud Usmonov**

Furye qatori haqida umumiy tushunchalar va funksiyalarni Furye qatoriga yoyish usullari..... 689

**Adiba O'razboyeva**

Kurash sport turi orqali talabalarni pedagogik jihatdan tarbiyalash..... 693

**Zuxra Akramova**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirishning tahliliy natijalari..... 696

**Saida Abdieva**

Effective English teaching methodologies prioritize genuine communication and interaction..... 700

**Saodat Muratova, Kamronbek Kaххоров, Azizbek Suyunov, Sitora Abdurashidova, Nilufar Abdurajabborova**

Современные представления об этиологии и патогенезе воспалительных заболеваний пародонта у лиц с патологией сердечно-сосудистой системы (обзор литературы)..... 702

**Kamila Alikberova**

The influence of culture on language and communication..... 706

**Bahadir Jumadurdiyev**

Kurash turlarining paydo bo'lishi va tarixiy manbalari..... 709

**Shaxnoza Xashimova**

The development of gastronomic tourism in Uzbekistan..... 712

**Nargiz Shavazi, Yulduz Tangirova**

Муддатдан олдин тухумдон етишмовчилиги: муаммонинг замонавий кўриниши..... 714

**Aziz Komilov**

Milliy kurash turlari va uni o'qitish texnologiyalari fanining jismoniy tarbiya fanlari tizimida tutgan o'rni va ahamiyati..... 718

**Shakhzoda Gulyamova**

The effectiveness of inductive and deductive method in teaching grammar..... 721

**Maxmuda Yakubova, Shoira Saidova**

Chizma geometriya va muhandislik grafikasi kursini o'qitishdagi muqarar o'zgarishlar haqida..... 724

**Odinaxon Karimova**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ekskursiya vositasida ekologik madaniyatni shakllantirish..... 727

**Askar Sabirbaev**

The importance of mobile applications in informatics..... 729

**Nilufar Xamrayeva**

Tilshunoslarning sotsiologiyaviy haqidagi qarashlari..... 732

**Kavcar Turdiyeva**

Доно сўзни айтгувчи мураббий..... 735

**Firuz Abdusalomov**

The emergence, components and techniques for issuing military order..... 738

**Saodat Muratova, Sevinch Mamatjafarova, Saïdahon Saïdazimova, Jasmina Sharopova**

Клиническая оценка прогноза развития пародонтита у лиц с сердечно-сосудистой патологией..... 742

**Lobar Abdullayeva**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik jihatlari..... 744

**Kamola Arifova, Azizbek Nazmutdinov, Gulrukh Taxirova, Mirzayor Inoyatov**

Гидродинамические подпипники скольжения щеки вала, прогнозирование ресурса трибосоединений и методика их использования..... 748

**Sunnatulla Musamedov**

O'zbekiston zamonaviy fotosan'atida uslublarning qo'llanilishi..... 751

**Javlonbek Zulxaydarov**

Pedagogik ta'lim klasteri ahamiyati va ta'lim klasterlarini takomillashtirish..... 754

**Asqar Qo'shmurodov**

Bo'lajak maktab menejerlarida iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish omillari..... 757

**Gulnoza Kamtaeva**

Самарқанднинг буюк мударрис олимлари..... 759



ди. Давлат органлари фаолияти бўйича амалга оширилаётган тадбирларни мониторинг қилиш асносида ахборот олиш имкониятларини таҳлил қилиш, фуқароларга қулайликлар яратиш ва шаффофликни таъминлаш борасидаги чор-тадбирларни ишлаб чиқиш бўйича таклифлар киритиши мумкин. Жамоатчилик кенгаши мазкур жараёнда фуқаролик жамияти институтлари ва фуқароларнинг хоҳиш-истакларини инобатга олади. Ахборот сиёсатини жамият учун мақбуллаштириш бўйича ўз нуктаи назарини ифода этади. Ўз навбатида ташкилотнинг расмий веб-сайтида жамоатчилик кенгаши фаолиятига тааллуқли очик ахборотларни жойлаштириб бориши ва ҳар чоракда мавжуд ахборотларни янгиланишини таъминлаши зарур. Лекин жамоатчилик кенгаши ҳақидаги маълумотларни расмий веб-сайтларга жойлаштиришда ахборот хизматлари фаол роль ўйнаши керак. Чунки жамоат-

чилик кенгаши аъзолари ўз фаолиятида бунга етарли эътибор бера олмаслигини вазирлик ва идораларнинг расмий веб-сайтларидаги жамоатчилик кенгаши учун ажратилган рукнлар кўрсатиб турибди.

Шундай қилиб, жамоатчилик кенгашлари давлат бошқарувининг янада демократлаштириш, Ўзбекистонни ривожлантириш бўйича 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифаларни рўёбга чиқариш, давлат органлари билан фуқаролар ва нодавлат нотижорат ташкилотлари ўртасида боғловчи тузилма сифатида шакллантирилди. Мустақиллик йилларида жамоатчилик кенгашлари айрим ижро идораларидагина бор эди. Бугунги кундаги талабга кўра давлат органлари, хусусан, вазирликлар, қўмиталар, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти идоралари жамоатчилик кенгашларини тузишлари шартлиги белгилаб қўйилган.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 04 июлдаги “Давлат органлари ҳузурида жамоатчилик кенгашлари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–3837-сон қарори. <https://lex.uz/docs/3808838>
2. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi jamoatchilik maslahat Kengashi to‘g‘risida Nizom. 09.12.2016. [https://mitc.uz/uz/pages/council\\_orders](https://mitc.uz/uz/pages/council_orders)
3. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги ҳузуридаги Жамоатчилик кенгаши томонидан 2022 йил II чорак давомида ўтказилган йиғилишлар ва кун тартибидаги асосий масалалар юзасидан маълумот. <https://ssv.ssv.uz/uploads/pages/%D0%96>
4. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Таълим-фан жамоатчилик кенгаши маълумотлари. 29.02.2024 йил.
5. Ички ишлар органларини халқчил тузилмага айлантириш йўлида. <https://nuz.uz/uz/zhamoat/1216979-ichki-ishlar-organlarini-halkchil-tuzilmaga-ajlantirish-jylida.html>
6. 2022 йилги Давлат дастурининг 1 сентябрь ҳолатига бажарилиши бўйича маълумотнома. <https://ymh.uz>
7. Маълумот. [https://soliq.uz/storage/files/January2024/000000008\\_c4470d3018cf359f451003d.pdf](https://soliq.uz/storage/files/January2024/000000008_c4470d3018cf359f451003d.pdf)



## ONA TILI TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TATBIQI

**Sanobar Kuldasheva,**

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

“Ona tili ta'limi” kafedrası katta o'qituvchisi

### Annotatsiya

*Maqolada ona tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar, til ta'limida multimedia vositalaridan unumli foydalanish, metodik dasturlarning yaratilishi, darslik va o'qituvchi kitoblari giperhavolalarning berilishi va ushbu imkoniyatlar orqali o'quvchilarni fanga qiziqtirish haqida fikr yuritilgan. Multimedia vositalari hamda multimedia dasturlari farqlangan. Chiziqli va chiziqli bo'lmagan multimedia turlari haqidagi ma'lumotlar ilmiy sharhlanib, asosan, darsning qaysi bosqichlarida tegishli turlaridan samarali foydalanish izohlab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** raqamli yondashuv, multimedia vositalari, giperhavola, chiziqli multimedia, chiziqli bo'lmagan multimedia, multimedia dasturlari, internet resurslar, jismoniy tashuvchilar.

### Аннотация

*В статье рассматриваются современные подходы к обучению родному языку, эффективное использование мультимедийных средств в языковом обучении, создание методических программ, обеспечение гиперссылок в учебниках и учебниках учителя, а также использование этих возможностей для интереса учащихся к науке.*

*Различают мультимедийные инструменты и мультимедийные программы. Информация о линейных и нелинейных видах мультимедиа получила научное толкование, преимущественно на этапах урока объяснялось эффективное использование соответствующих видов.*

**Ключевые слова:** цифровой подход, средства мультимедиа, гиперссылка, линейное мультимедиа, нелинейное мультимедиа, мультимедийные программы, интернет-ресурсы, физические носители.

#### Annotation

*The article discusses modern approaches to teaching the mother tongue, the effective use of multimedia tools in language education, the creation of methodological programs, the provision of hyperlinks in textbooks and teacher's books, and the use of these opportunities to interest students in science. Multimedia tools and multimedia programs are distinguished. Information about linear and non-linear types of multimedia has been scientifically interpreted, mainly in which stages of the lesson the effective use of the relevant types has been explained.*

**Keywords:** digital approach, multimedia tools, hyperlink, linear multimedia, non-linear multimedia, multimedia programs, Internet resources, physical carriers.

Jamiyatimizda innovatsion axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonlarida samarali foydalanish va uni qo'llashga bo'lgan talab, unga bo'lgan qiziqish va e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Albatta, buning muhim sabablaridan biri shuki, an'anaviy ta'limda e'tibor faqat tayyor hosil qilingan bilimlarni egallashga, grammatik qoidalarini yodlashga qaratilgan. Zamonaviy pedagogika esa o'quvchilarning egallayotgan bilimlarini o'zlari saralab topishga, mustaqil fikrlab tahlil qilishga, oxirgi yechim va xulosalarni erkin keltirib chiqarishga, hatto o'z bilimlarini xolisona baholashga o'rgatadi. Zamonaviy pedagogika talablari multimedia vositalari orqali qiyinchiliksiz amalga oshiriladi. "Ta'lim muassasalarida mediamadaniyatni ta'lim va medianing integratsiyasi asosida rivojlantirish faoliyatini yo'lga qo'yish, mediabilimlarni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali mediakompetentlikni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda" [1, 3]. Darhaqiqat, bugungi kunda bilim olishimiz, yashashimiz, hayot tarzimiz, jamiyatdagi o'rnimiz — barchasi media bilan bog'liqdek go'yo. Mediarivojimiz, mediamadaniyatimiz jamiyatdagi o'rnimizni belgilashda ham muhim rol o'ynayapti. Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha va maktabdagi ta'limni media bilan integratsiyalash o'quvchiga ham qiziqish uyg'otadi, ham hayot bilan yaqinlashtiradi. Shu jihatdan darslarni multimedia vositalaridan foydalangan holda tashkil etish tobora dolzarblik kasb etib bormoqda.

Multimedia vositalaridan foydalanishda bir qator imkoniyatlar yuzaga keladi. Bulardan biri ayni paytda yana bir qancha qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishib chiqish uchun havoalarning mavjudligidir. Jumladan, ayrim giperhavolalar adabiy yoki musiqiy asarni ilk manba bilan, uning turli xildagi ko'rinishi yoki ijrosi bilan (turli variantdagi tarjimalari bilan) bog'lash imkonini beradi. "Assosiativ giperhavolalar musiqiy, tasviriy san'at va badiiy asarlarni assotsiativlar, jismoniy tashuvchilar (cd, Dvd, flesh-karta) hamda onlayn-maydon orqali sayt sahifalari yoki turli portallardagi axborotlar bilan bog'lash orqali foydalana oladi" [2, 188]. Bilamizki, ona tili darsliklarida "matn bilan ishlash", "lug'at bilan ishlash"ga doir mashq va topshiriqlar ko'plab kiritilyapti. Bu hodisa o'qituvchi va o'quvchilarni lug'at kitoblari bilan ishlashga majbur

etadi. Ayni paytda multimedia vositalarini qo'llash foydalanish o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham imkoniyat eshigini ochadi. Darsliklarning multimedia ilovalari yaratilganda, matnda berilgan so'zning ustidagi tugmachani bosib, elektron lug'atlar bilan ulanish, so'zning mazmun-mohiyati mavjud manbalarda qanday ma'no kasb etib kelganligiga guvoh bo'lish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

N.Moreva o'quv videoroliklari bugun nisbatan kengroq qo'llana boshlanganini, ular o'zida kino, ovoqli yozuv hamda televideniye imkoniyatlarini mujassamlashtirganini ta'kidlaydi va uning afzalliklarini e'tirof etadi. O.V.Shlikovanning ta'kidlashicha: "Multimedia an'anaviy statik vizual (matn va grafika) axborotni dinamik (nutq, musiqa, videolavhalar, animatsiya va boshqalar) axborot bilan qo'shish texnologiyasidir" [3, 9]. Ya'ni aytish joiz bo'lsa, multimedia texnologiyasida statik axborot ovoz va harakatlar yordamida "jonlantirib" taqdim etiladi. Matn ko'rinishidagi ma'lumotni o'quvchi o'qiydi, ammo u qay darajada anglaydi? Ba'zi holatlarda bu masala ikkinchi darajali bo'lib qolayotgandek. Multimedia vositalaridan foydalanilganda bolada anglash ko'nikmalari rivojlanadi. Endi u faqat o'qib tushunish bilan cheklanmaydi, balki o'qigan axborotini ekrandagi harakatlar orqali ko'radi, eshitadi. Olinadigan ma'lumot barcha qabul kanallari orqali miyaga yetib borganda, tez va to'g'ri anglash sodir bo'ladi.

Berardi Simon o'z tadqiqotida "multimedia o'quv materiallari o'rganuvchining madaniyatlararo kompetensiyasini oshirish, nutq faoliyatining turlari, jumladan, o'qish va tinglash bo'yicha malakasini oshirish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratishga imkon berishini" [4:9] ta'kidlaydi. Nutq me'yorlariga (ton, talaffuz, diksiya) amal qilingan holda yozilgan audiomatnlarni takror-takror tinglaydi va o'z nutqining sofligi, aniqligi, ravonligi ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tajribalardan shu ayonki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim tizimida joriy etish, dars mashg'ulotlarida ushbu texnologiyalarning turli shakllaridan samarali foydalanish nafaqat mazkur sohadagi bilim va malakalarning rivojlanishiga xizmat qiladi, vaholanki, o'quvchi dunyoqarashining shakllanishiga, o'z yo'lini

mustaqil tanlashiga, shaxsiy fazilatlarining mukammalla-shuviga ta'sir ko'rsatadi, bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirishga, o'rganishni takomillashtirishga xizmat qiladi. Ko'plab olimlarning fikriga ko'ra, AKT o'quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanishiga ham jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Matn, nutq, grafika, animatsiya, audio, video kabi turlicha usullarning kombinatsiyasidan yaratilgan yangi, zamonaviy mahsulotlardan ona tili mashg'ulotlarida unumli va o'rinli foydalanib darsning mazmuni va shaklini ta'minlash o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kreativ fikrlashlarini takomillashtirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi: ma'lumotlardan tezkor foydalanish, audio va vizual materiallardan istalgan makon va zamonda foydalana olish mumkinligi, ko'rib idrok qilishni, mustaqil, ongli ravishda xulosa chiqarishni osonlashtiradi. Multimedia vositalari asosida o'quvchi, talabalarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir" [5, 26]. Fikrlashning quyi bosqichlari (o'qing, tushunganingizni gapirib bering, ko'chirib oling kabi)dan fikrlashning yuqori bosqichlari (analiz, sintez qilish, kreativ fikrlash)ga chiqish multimedia vositalari orqali qulayroq amalga oshiriladi.

Zhen Wang va Jianbo He o'z tadqiqotlarida kompyuter va tegishli texnik jihozlar, rasmlar, matnlar, tovushlar, tasvirlar va turli xil ommaviy axborot vositalari

ma'lumotlarini raqamli ravishda olish, boshqarish, aloqa qilish va qayta ishlash uchun yangi avlod kompyuter integratsiyalashgan va foydalanuvchilarga interaktiv ma'lumotlarni taqdim etish hamda muloqot o'rnatish muhiti ekanligini ta'kidlaydi. Multimediali axborot tasvir, tovush va animatsiya kombinatsiyasini birlashtiradi va foydalanuvchi terminaliga ko'p o'lchovli, ko'p burchakli va ko'p rejimda uzatish imkonini beradi. Multimedia texnologiyasi bir nechta axborot obyektlarini birlashtirib, qayta ishlanib, so'ng o'quvchiga har tomonlama ta'sir asosida taqdim etiladi. Ko'rish, eshitish, bajarib ko'rishning parallel holda bir vaqtning o'zida amalga oshirish esa o'quvchilarning muhokama qilishi, xulosa chiqarishi uchun kuchli ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan omilga aylanadi. Mana shu jarayonlarning nisbatan qisqa muddat (vaqt oralig'i)da bajarish esa o'quvchining ijodiy fikrlashi, mushohadasi, eng muhimi, natijani ko'z oldida yuzaga kelishi asosida o'ziga bo'lgan ishonchning kuchayishiga olib keladi.

Tadqiqot davomida ona tili va adabiyot o'qituvchilaridan multimedia vositalaridan qay darajada foydalanishlari to'g'risida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalari 1-jadvalda aks ettirildi.

O'qituvchilar orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari (100 nafar o'qituvchi)

1-jadval

| Javob variantlari                                                                                            | Berilgan javoblar soni | Berilmagan javoblar soni | Foizda | Javob variantlari                                                                                              | Berilgan javoblar soni | Berilmagan javoblar soni | Foizda |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------|--------------------------|--------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------|--------------------------|--------|
| 1. Ona tili ta'limida multimedia vositalaridan foydalanasizmi?                                               |                        |                          |        | 3. Dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish uchun maktabda shart-sharoit yetarliymi?               |                        |                          |        |
| A)                                                                                                           | 81                     | –                        | 81%    | A)                                                                                                             | 78                     | –                        | 78%    |
| B)                                                                                                           | 9                      | –                        | 9%     | B)                                                                                                             | 9                      | –                        | 9%     |
| C)                                                                                                           | 8                      | –                        | 8%     | C)                                                                                                             | 11                     | –                        | 11%    |
| D)                                                                                                           | –                      | –                        | 0%     | D)                                                                                                             | 2                      | –                        | 2%     |
| 2. Multimediali texnologiya deganda nimani tushunasiz?                                                       |                        |                          |        | 4. Dars jarayonida foydalanish uchun multimedia texnologiyasi yaratishga harakat qilib ko'rganmisiz?           |                        |                          |        |
| A)                                                                                                           | 95                     | –                        | 95%    | A)                                                                                                             | 78                     | –                        | 78%    |
| B)                                                                                                           | 5                      | –                        | 5%     | B)                                                                                                             | 9                      | –                        | 9%     |
| C)                                                                                                           | –                      | –                        | 0%     | C)                                                                                                             | 11                     | –                        | 11%    |
| D)                                                                                                           | –                      | –                        | 0%     | D)                                                                                                             | 2                      | –                        | 2%     |
| 3. Sizningcha, ona tili darslarining qaysi bosqichlarida multimedia vositalaridan unumli foydalansa bo'ladi? |                        |                          |        | 6. Qo'lingizda tayyor holatdagi multimedia texnologiyalari mavjud bo'lsa, dars jarayoniga tatbiq etarmidingiz? |                        |                          |        |
| A)                                                                                                           | 67                     | –                        | 67%    | A)                                                                                                             | 85                     | –                        | 85%    |
| B)                                                                                                           | 21                     | –                        | 21%    | B)                                                                                                             | 15                     | –                        | 15%    |
| C)                                                                                                           | 6                      | –                        | 6%     | C)                                                                                                             | –                      | –                        | 0%     |
| D)                                                                                                           | 6                      | –                        | 6%     | D)                                                                                                             | –                      | –                        | 0%     |



Quyida so'rovnomaning ba'zi jihatlarini tahlilga tortamiz. "Ona tili ta'limida multimedia vositalaridan foydalanasizmi?" degan birinchi savolga 100 ta o'qituvchining 83 nafari "ba'zan foydalanaman", 9 nafari "o'quvchilarni qiziqitira olmayman, sinfda tartib yo'qoladi", 8 nafari "an'anaviy usul menga ma'qulroq", deb javob qaytargan. Respondentlardan hech kim D punktdagi "Kompyuter vositalaridan foydalanishni bilmayman" degan to'xtamni tanlamagan. Demak, aksariyat o'qituvchilar multimedia vositalari deganda AKTning barcha imtiyozlarini nazarda tutgan va foydalanib turishini ta'kidlagan. 9 nafari B punktni tanlaganining sababi bu jarayonda o'quvchilarda erkinlik paydo bo'lishi hamda boshqaruvchilik nazoratini qo'ldan chiqarib yuborishini aytadi. AKTdan foydalana olmaydigan o'qituvchi topilmaydi, ammo qay darajada foydalana olishi e'tiborga molik.

2-savol: "Multimediali texnologiya deganda nimani tushunasiz?"

95 nafar o'qituvchi "Darsda video va audiolardan foydalanishni tushunaman" deb, 5 nafari "Harakatli animatsiyalardan foydalanishni tushunaman" deb javob bergan. Bundan ko'rinib turibdiki, aksariyat o'qituvchilar multimedia vositalari (matn, nutq, tasvir, video, animatsiya)dan foydalanib, multimedia texnologiyalari yaratilishini hali to'la-to'kis tushunib yetmagan. Dars jarayonida audiolardan foydalanishni yoki videodarslardan parcha qo'yib berishni multimedia texnologiyasidan foydalanish deb tushunishadi. To'g'ri, video, audio, animatsiyalar multimedia vositasi hisoblanadi, ammo biz savolda multimedia texnologiyasini nazarda tutgan edik.

4-savol: "Dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish uchun maktabda shart-sharoit yetarli?"

78 nafar o'qituvchi "Shaxsiy kompyuterimdan foydalanaman" deb, 9 nafari "Multimedia ishlanmalari yo'q, shuning uchun foydalanmayman" deb, 11 nafari "Yetarli emas, shuning uchun har doim foydalana olmayman" deb, 2 nafari "Sinf xonasi barcha vositalar bilan jihozlangan" degan javob ustida to'xtalganlar. Bundan kelib chiqadiki, maktablarda ona tili xonalari kompyuter vositalari bilan yetarlicha jihozlanmagan, internet tarmoqlari doimiy ravishda ishlamaydi yoki past tezlikda ishlaydi, WiFi tarmoqlari faqat informatika xonalarida mavjud. O'rta umumta'lim maktablarida 2ta yo 3ta videoprojektorlar mavjud, ularning hammasi ham soz holatda emas. Kompyuter vositasida o'quvchilar bilimini baholashga zarurat tug'ilgandagina darslar kompyuter bilan jihozlangan informatika xonalarida tashkil etiladi. Aksariyat hollarda o'qituvchi shaxsiy kompyuterini proyektorga ulab darsda foydalanish imkoniyatiga ega xolos.

5-savol: Dars jarayonida foydalanish uchun multimedia texnologiyasi yaratishga harakat qilib ko'rganmisiz?

Mazkur savolga 75 nafar o'qituvchi A punktdagi "Yo'q, slaydlardan foydalanaman" degan javobni belgiladi. O'qituvchilar har bir mavzuga oid slaydlar bazasiga ega, qolaversa, ko'pgina o'qituvchilar mavzu doirasida

mustaqil slayd yaratish mahoratiga ham ega. Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek, slayd multimedia vositasi hisoblanmaydi. 25 nafar o'qituvchi B punktdagi "Ha, darsning ba'zi bosqichlari uchun yaratganman" degan javobda to'xtaldi. Bu toifadagi o'qituvchilar ko'rik-tanlovlarda talab yuzasidan yaratgan videodarslarini, yozma ish (diktant, bayon, ijodiy matn)larni tashkil etish uchun ovoz tasmasiga yozilgan audiolarni nazarda tutgan. Adabiyot darslarida adiblar haqidagi videoroliklar, asarlar asosida yaratilgan kinofilmlardan foydalanish mumkinligini, ammo ona tili darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda imkoniyat kamligini ro'kach qilishdi. Adabiyot darslarida foydalanish uchun keng imkoniyat tug'dirayotgan ijodkorning hayoti va ijodidan tayyorlangan 20-30 daqiqalik teleko'rsatuv yoki o'qituvchi tomonidan yaratilgan slaydlar asosida tayyorlangan videoroliklardan foydalanishni ba'zi o'qituvchilar videodars deb hisoblashini ham guvohi bo'ldik. S punktdagi "Yo'q, tasavvurga ega emasman" hamda D punktdagi "Axborot texnologiyalaridan mustaqil foydalana olmayman" degan javoblarni birorta o'qituvchi belgilamagan. Aslida multimedia vositalari haqida aniq tasavvurga ega bo'lmagan o'qituvchilar ham mavjud, ammo ular bunday javob berishni o'ziga loyiq ko'rmagan.

So'rovnomadan ma'lum bo'ladiki, aksariyat ona tili o'qituvchilarida kompyuter savodxonligi yetishmaydi. Darslikdagi mashq va topshiriqlar ustida ishlash jarayonida darslikning metodik strukturasiga tayangan holda faoliyat yuritadilar. Mashq va topshiriqlarga pedagogik ishlov berish jarayonlari kam kuzatiladi, an'anaviy "doska-bo'r" uslubini ma'qul ko'rishadi, yangiliklarga intiluvchanlik kam kuzatiladi, kompyuterning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanmaslikni maktablarning moddiy-texnik bazasi ta'minotiga yo'yishadi. Darsning yangi bilim berish bosqichlarida slayd ko'rinishidagi taqdimotlardan foydalanishadi va bu bilan go'yo ona tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanilgandek. Lekin o'zi slayd yaratish mahoratiga ega bo'lgan bugungi kunning o'quvchisi uchun bu eskirgan jarayon. Texnika shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda jadal qadam tashlamasak, o'quvchidan orqada qolishimiz tayin.

O'qituvchi multimedia vositalari yoki multimedia texnologiyalaridan kam foydalanishining bir nechta obyektiv va subyektiv sabablarini aniqladik:

1. Ona tili o'qituvchisi AKT yuzasidan to'liq bilimga ega emas. Past malakaga ega ekanligi uchun yordamga muhtojlik sezadi va bu ish unumdorligini pasaytiradi.
2. Multimedia vositalaridan foydalanish ko'p izlanish (rejalashtirish, loyihalash) va vaqtni talab etadi. O'qituvchi topshiriqlar uchun material topishi, yaratishi uchun kamida 8-10 soat vaqt sarflashi kerak.
3. Maktablardagi moddiy-texnik baza bilan bog'liq muammolar o'qituvchining ish samaradorligiga ta'sir o'tkazadi.
4. Multimedia vositalari bilan ishlaganda an'anaviy

o'qitish jarayoniga nisbatan o'qituvchining roli pasayadi, o'quvchilar o'zini erkin tutishi natijasida o'qituvchi boshqaruvchilikni qo'ldan chiqarib yuboradi, degan salbiy gumonga borishadi va bu fikrni o'z psixologiyasiga singdiradi.

5. Ba'zi hollarda o'quvchilarning AKT kompetensiyasi o'qituvchi AKT kompetensiyasidan ustun kelib qolishidan qo'rqishadi va o'z yelkasiga mas'uliyat olishni xohlamaydi.

Ona tili darslarida multimedia vositalaridan o'rinli foydalanish pedagogik muammo sifatida mavjud.

1. So'rovnoma natijalariga ko'ra o'qituvchilarning aksariyati darsning turli bosqichlarida multimedia vositalaridan foydalanish me'yor va mezonlarini bilmasliklari, multimedia vositalari va multimediali texnologiya termini haqida biryoklama tushunchaga ega ekanliklari ma'lum bo'ldi.

2. O'quvchilardan olingan so'rovnoma natijalari multimedia vositalari va texnologiyalari asosida darslarni tashkil etish va bilimlarini baholashga ehtiyoj yuqori ekanini ko'rsatdi.

3. Ona tili o'qituvchisi AKT yuzasidan to'liq bilim-

ga ega emas. Past malakaga ega ekanligi uchun yordamga muhtojlik sezadi va bu ish unumdorligini pasaytiradi.

4. Maktablardagi moddiy-texnik baza bilan bog'liq muammolar o'qituvchining ish samaradorligiga ta'sir o'tkazadi.

Ta'lim sifatini yanada yaxshilash uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. Mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'limning bakalavr bosqichlarida AKT hamda multimedia vositalaridan foydalana olish malakasini rivojlantiruvchi kurslar (tanlov fanlar) qo'yilishi lozim.

2. Texnika va texnologiya tez rivojlanib borayotgan davrda har yili fan o'qituvchilari uchun multimedia vositalari bilan ishlash malakasini oshirish kurslarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

3. Har bir sinf ona tili darsliklariga multimedia ilovalari yaratilishi kerak.

4. Geymifikatsiya (raqamli o'yinlarga asoslangan ta'lim)ga asoslanib, ona tilini o'rganishga mo'ljallangan interaktiv multimediali o'yin dasturlari yaratilishini yo'lga qo'yish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рустамова Н.Р. Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчилари медиамаданиятини ривожлантириш технологияси (7-9-синфлар мисолида). Пед.фан.б. фал.док...дис. – Т., 2019. – 156 б.
2. Кашук С.М. Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования (на примере обучения французскому языку) Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – М., 2014. – 188 с.
3. Шлыкова О.В. Культура мультимедиа: Уч. пособие для студентов / МГУКИ. – М.: ФАИР-ПРЕСС. 2004. – 420 с.
4. Берарди Симон. Дистанционное обучение в практике преподавания русского языка в итальянской аудитории (на примере авторских мультимедийных курсов “Краски-А1” и “Краски-А2”). Дисс. на соискание уч. степени кандидата педагогических наук. – М., 2011. – 210 с.
5. Адилова С.А. Ўзбек тили машғулотларини компьютер технологиялари воситасида ташкил этиш (олий таълим муассасаларининг русийзабон гуруҳларида). Пед. фан. ном. ... дисс. – Т., 2004. – 147 б.
6. Бегматова Н.Х. Мактабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. ном. ... дисс. – Қарши, 2012. – 151 б.

